

## ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARING MEHNATGA OID KO'NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

**Abdullayeva Nargiza O'ktamovna**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchi*

**Mavlonova Gulnoza**

*Jizzax viloyat1-sonli Kar bolalar maxsus*

*maktab-internati o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar mehnat ta'lmini tadqiqot ishlarida mehnat tarbiyasida rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar bir qator fazilatlarni namoyon qilishda ijobiy fikrlarni ifodalab berilgan. Nazariyalarning barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shuki, ular shaxs mehnat tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yilganligini, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida yetakchi hisoblanishi to'g'risida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxs, eshitish qobiliyati, mehnat ta'limi, mantiqiy tafakkur, og'zaki nutqni rivojlantirish usullari, mehnat tarbiyasi.*

**Abstract:** *In the research work on the labor education of children with hearing impairment, the qualities that can be developed in the labor education are expressed as positive opinions on the manifestation of a number of qualities. The ideological basis of all the theories is that they highlight the role of the family and family education in the labor training and development of the individual, especially that it is considered the leader in the mental and moral development of the individual.*

**Key words:** *Hearing-impaired person, hearing ability, labor education, logical thinking, methods of oral speech development, labor education.*

**Аннотация:** *В исследовательской работе по трудовому воспитанию детей с нарушением слуха качества, которые можно развивать в трудовом воспитании, выражаются в виде положительных мнений о проявлении ряда качеств. Идейной основой всех теорий является то, что они подчеркивают роль семьи и семейного воспитания в трудовом обучении и развитии личности, особенно то, что она считается ведущей в умственном и нравственном развитии личности.*

**Ключевые слова:** *Слабослышащий человек, слух, трудовое воспитание, логическое мышление, методы развития устной речи, трудовое воспитание.*

Jahonning yetakchi ta'lim muassasalarida imkoniyatlari cheklangan bolalarga ta'lim-tarbiya berish va imkoniyatlarga mos keladigan kasblarga yo'naltirishning o'quvchilar uchun zarur bo'lgan bilimlarni bevosita o'yin texnologiyalari asosida amaliy egallash texnologiyalari amaliyatga ta'lim tizimiga tatbiq etilmoqda. YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inchxon deklaratsiyasi, "Ta'lim hamma uchun" dasturi asosida zaif eshituvchi bolalarning mehnatga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish metodlarini takomillashtirish, zaif eshituvchi bolalar ta'limi

mazmunini shakllantirishda yirik loyihalarni tadbiq etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida maxsus mакtab internatlarida mehnatga o'rgatishni rivojlantirish, ta'lim ishtirokchilari faoliyatini diversifikatsiyalash, bo'lajak surdopedagoglarning mehnatga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish, zaif eshituvchi bolalarga mehnatning inson, jamiyat hayotidagi ijodiy va axloqiy ahamiyati haqida, dastlabki g'oyalarni singdirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga mehnat orqali bilim va ko'nikma shakllantirish asosida o'quvchilarining mustaqil, o'zaro muloqot ko'nikmalarini, oddiy mehnat malakalari olami hamda o'quvchilarining mustaqil, o'zaro muloqot ko'nikmalarini va oddiy mehnat malakalarini to'g'ri tanlashning didaktik ta'minotini yaratish, pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, alohida ehtiyojli bolalarni mehnat jarayonida samarali muloqotga tayyorlash texnologiyalarini tizimlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni mehnatga o'rgatish jarayonida mehnat faoliyati masalalarining me'yoriy ishlari yaratilmoqda, bu borada qonun hujjatlarida "... har bir bola bilim olish huquqiga ega", "... ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar jamiyat hayotida ishtirok etishda boshqa bolalar bilan teng huquqlarga egadir», – deb ko'rsatilgan. "... Nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni o'quvchilarining mustaqil, o'zaro muloqot ko'nikmalarini va oddiy mehnat malakalariga o'qitish va ishga joylashtirish sohasidagi ishlarni amalga oshirish" ustuvor vazifalar etib belgilangan. Bu zaif eshituvchi bolalarda dastlabki mehnat ko'nikmalarini yaratish imkoniyatlarini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF- 4947-sон "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-sон "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" va 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sон "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sон "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatlariga tegishli tashkilotlarni davlat tomonidan qo'llab- quvvatlash hamda

nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligiga ko'maklashishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-390- sonli qarorida mazkur nogironligi bo'lgan va imkoniyati cheklangan shaxslarga avvaldan yurtimizda jamiyatning ajralmas bir qismi sifatida e'tibor qaratib kelinadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda respublikamizda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamenti har tomonlama qo'llab- quvvatlash, jumladan, mehnatga o'rgatish faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun ko'mak berish kabi vazifalar belgilandi

Maxsus maktab internati faoliyatining bugungi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida insonning hayoti va o'quvchilarning mustaqil, o'zaro muloqot ko'nikmalarini va oddiy mehnat malakalari o'zini-o'zi belgilash jarayoni sifat jihatidan turli xil xususiyatlarga ega bo'lib, ta'lim maktabiga o'z taqdirini o'zi belgilash talablarini sezilarli darajada qo'yadi.

Mehnat – insonning muayyan ehtiyojlarini qondira oladigan va o'ziga kerak bo'ladigan moddiy yoki ma'naviy ne'matlarini ishlab chiqarish (yaratish) bo'yicha ongli, maqsadli va taqiqlanmagan faoliyatidir. "Mehnat" so'zi bir qator tushunchalarni o'z ichiga oladi. Hayot davomida inson ko'p vaqt, aniqrog'i har kuni ishlaydi. Mehnat tarbiyasi zaif eshituvchi bolalarda oiladan boshlanadi, ota-onalar farzandlariga kiyinishni, ovqatlanishni, idishlarni yuvishni, narsalarni tozalashni o'rgatadi, ota-onalar farzandlariga tashqi dunyo bilan tanishishimiz uchun foydali bo'lgan hamma narsani o'rgatadilar. Har bir ota-onsa farzandini mehnatkash qilib tarbiyalashga intiladi. Aynan

mehnat faoliyati va uning avloddan-avlodga o'tishi mehnat faoliyati tajribasini saqlab qolgan va shu bilan birga ularni kelajakdagi mustaqil faoliyatga tayyorlashni ta'minlagan. Maxsus maktab internati boshlang'ich sinf yoshidagi yetakchi faoliyat – bu o'quv faoliyatidir. O'quv faoliyati jarayonida kichik o'quvchi, ehtimol, qisqa vaqt ichida asosiy ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishi kerak. Shu bilan birga, zaif eshituvchi o'quvchi o'zi uchun yangi ilmiy tushunchalar mazmunini o'zlashtirish bilan birga, uchun yangi faoliyat turi – o'rganish usullarini asta-sekin o'zlashtiradi.

"Mehnat" va "mehnat ta'limi" tushunchalari o'qituvchilar uchun eng muhimlaridan biri bo'lib, uzoq tarixga ega. Buni arxeologik qazishmalar natijasida isbotlangan tarixiy faktlar tasdiqlaydi.

Tarbiya, eng avvalo, insonning haqiqiy baxt-saodati, ya'ni g'oya nomidagi hayot haqida qayg'urishdir. U hayotning har bir daqiqasini va dunyoning har bir burchagida, paydo bo'lgan shaxs bilan aloqada bo'lgan har bir odamni ba'zan tasodifan o'rgatadi.

Texnologiya darslarida boshlang'ich maxsus maktab internati zaif eshituvchi o'quvchilarda mehnat to'g'risidagi g'oyalarni shakllantirish bo'yicha darslar to'plamini nazariy jihatdan asoslash va sinab ko'rish.

"Mehnatga o'rgatishda bilim, ko'nikma va malaka haqidagi" tushunchasi ostida biz shaxs tarkibidagi muhim semantik shakllanishlarni tushunamiz, ular ko'nikma-malaka haqidagi bilimlarni o'zgartirish mahsuli bo'lib, asosida shaxsda mehnat faoliyatiga qiziqish, faollik va mehnatsevarlikni rivojlantiradi va ishda namoyon bo'ladi. Agar jamoaviy ish, o'yin usullari, har bir zaif eshituvchi o'quvchini

qiziqtiradigan vazifalar qo'llanilsa, g'oya boshlang'ich maxsus mакtab internati zaif eshituvchi o'quvchilarida samaraliroq shakllanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисида Қонуни.

2020 йил 23 сентябрь. ЎРҚ-637-сон

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947- сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. № 6(766). 70-модда. - Т.: Адолат, 2017. 7 феврал.

3. Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора- тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2909-сон қарори. 2017 йил 20 апрель.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 декабрдаги “Ногиронлиги бўлган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора- тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5270-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил 11 декабрь, 49- сон, 1195-модда.

5. “Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси”. БМТ Бош Ассамблеяси 217 А (III) Резолюсияси, 1948, 10.12./ [www.constitution.uz](http://www.constitution.uz).

6. Шарипов Ш.С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Пед. фан. докт дисс.-Т.,